Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tadqiqot natijalari kriminal badiiy diskursda "jinoyat" va "adolat" konseptlari matnning semantik hamda pragmatik tuzilishini belgilovchi asosiy konseptual markaz ekanini ko'rsatdi. T.Malik va A.Kristi asarlari tahlili jinoyat diskursda konfliktni yuzaga kel-tiruvchi birlik sifatida, adolat esa ushbu konfliktni yakunlovchi va baholovchi konsept sifatida namoyon bo'lishini tasdiqladi. Lingvopragmatik jihatdan jinoyat ayblash, yashirish, tahdid, shubha kabi nutqiy strategiyalar orqali ifodalansa, adolat aniqlash, isbotlash, hukm chiqarish hamda muvozanatni tiklash bilan bog'liq birliklar orqali yuzaga chiqishi aniqlandi. Shu bilan birga, turli adabiy an'analarda ushbu konseptlarning talqini farqlanishi kuzatildi: ijtimoiy-kriminal diskursda adolat ko'proq axloqiy yoki hayotiy baho bilan bog'lansa, detektiv diskursda u haqiqatni aniqlash va qonuniy hukm chiqarish bilan ifodalanadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda kriminal badiiy diskursni kengroq materiallar asosida o'rganish, turli tillar va adabiy maktablar kesimida "jinoyat" va "adolat" konseptosferalarining qiyosiy tahlilini olib borish hamda lingvopragmatik vositalarning korpus asosida tadqiq etilishi ushbu yo'nalish bo'yicha yanada aniq ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge: Cambridge University Press, 1998, 312 p.

(2). Coulthard M., Johnson A., Wright D. An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence. London, Routledge, 2017, 270 p.

(3). Fludernik M. An Introduction to Narratology. London, Routledge, 2009, 200 p.

(4). Herman D. Story Logic: Problems and Possibilities of Narrative. Lincoln, University of Nebraska Press, 2004, 500 p.

(5). Huang Y. Pragmatics. Oxford, Oxford University Press, 2014, 464 p.

(6). Locher M.A., Jucker A.H. The Pragmatics of Fiction: Literature, Stage and Screen Discourse. UK, Edinburgh University Press, 2021, 275 p.

(7). Semino E. Language and World Creation in Poems and Other Texts. London, Routledge, 2014, 288 p.

(8). Simpson P. Stylistics: A Resource Book for Students. 3rd ed. London, Routledge, 2025, 338 p.

(9). Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. New York, Oxford University Press, 1997, 317 p.

Uralova Oysuluv Poyan qizi (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti "Xorijiy til va adabiyoti" kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent; E-mail: oysuluv.tersu.2019@gmail.ru)

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ZOOKOMPONENTLI MAQOLLARNING SEMANTIK VA STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi zookomponentli maqollarning semantik va struktur xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida hayvon nomlari orqali ifodalangan milliy dunyoqarash, madaniy qadriyatlar va obrazli tafakkur o'rganiladi. Shuningdek, maqollarda qo'llaniladigan hayvon obrazlarining o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *maqol, zookomponent, semantika, struktura, lingvokulturologiya.*

Уралова Ойсулув Поян кизи (Заведующая кафедрой иностранных языков и литературы, Термезский университет экономики и сервиса, доктор филологических наук (DSc), доцент; E-mail: oysuluv.tersu.2019@gmail.ru)

СЕМАНТИЧЕСКИЕ И СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗООКОМПОНЕНТНЫХ ПОСЛОВИЦ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье представлен сравнительный анализ семантических и структурных особенностей зоокомпонентных пословиц в английском и узбекском языках. Исследование рассматривает национальное мировоззрение, культурные ценности и образное мышление, выраженные через названия животных. Также выявляются сходства и различия в использовании животных образов в пословицах.*

Ключевые слова: *пословица, зоокомпонент, семантика, структура, лингвокультурология.*

Uralova Oysuluv Poyan qizi (Head of the Department of Foreign Languages and Literature, Termez University of Economics and Service, Doctor of Philological Sciences (DSc), Associate Professor; E-mail: oysuluv.tersu.2019@gmail.ru)

SEMANTIC AND STRUCTURAL FEATURES OF ZOO-COMPONENT PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. *This article presents a comparative analysis of the semantic and structural features of zoocomponent proverbs in the English and Uzbek languages. The study examines national worldview, cultural values, and figurative thinking expressed through animal names. It also identifies the similarities and differences in the use of animal imagery in proverbs.*

Keywords: *proverb, zoocomponent, semantics, structure, linguoculturology.*

Kirish (Introduction). Til xalqning madaniyati, tafakkuri va tarixiy tajribasini aks ettiruvchi asosiy vositadir. Maqollar esa xalq donishmandligining qisqa, ammo mazmunan chuqur shaklidir. Ayniqsa, hayvon nomlari ishtirok etgan maqollar inson xarakteri, jamiyat munosabatlari va axloqiy qadriyatlarni obrazli tarzda ifodalaydi. Lingvokulturologik tadqiqotlarda maqollar milliy mentalitetni o'rganishning muhim manbasi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hayvon nomlarining maqollarda qo'llanishi xalqning turmush tarzi va dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Zookomponentli birliklar va maqollarni o'rganish tilshunoslikda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Hayvon nomlarining metaforik va semantik xususiyatlari E.A.Katsitadze tomonidan nemis tilida zoonimlarning metaforizatsiyasi asosida tadqiq etilgan [5]. A.I.Kipriyanova turli tillar materiallari asosida zoomorfizmlarning funksional xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilgan [6]. Struktural yondashuv masalalari K.Levi-Strossning antropologik qarashlarida yoritilib, unda til birliklari madaniy tafakkur mahsuli sifatida talqin qilinadi [7]. N.V.Solntseva hamda L.F. Mironyuk ishlarida zoonimlarning semantik tipologiyasi va etnosemantik jihatlari tadqiq etilgan [1]. O'zbek tilshunosligida zookomponentli paremiologik birliklar D.A.Tosheva, H.Berdiyorov va R.Rasulovlarning ilmiy ishlarida yoritilgan bo'lib, ularda maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, A.V.Shevtsova va J.Habibullayev hamda S.Abdullayeva tadqiqotlarida ingliz va o'zbek tillaridagi zoonimli birliklar qiyosiy aspektda o'rganilgan [9;23-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida ingliz va o'zbek tillariga oid maqollar to'plamlari hamda paremiologik lug'atlardan olingan materiallar tahlil qilindi. Ishda qiyosiy-tavsifiy, semantik hamda statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Hayvon nomlarining maqollarda uchrash chastotasi aniqlanib, ularning ma'no yuklamasi lingvomadaniy nuqtayi nazardan baholandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Til xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati va dunyoqarashini aks ettiruvchi eng muhim vositalardan biridir. Xalq og'zaki ijodining muhim janrlaridan biri bo'lgan maqollar esa asrlar davomida shakllangan hayotiy donishmandlikni ixcham va obrazli shaklda ifodalaydi. Ayniqsa, tarkibida hayvon nomlari ishtirok etgan maqollar – zookomponentli maqollar – inson xarakteri, ijtimoiy munosabatlar hamda axloqiy qadriyatlarni ramziy tarzda tasvirlashda muhim rol o'ynaydi. Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, hayvon obrazlari orqali insonning ijobiy va salbiy xususiyatlari ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi *"Every dog has its day"* maqoli har bir in-sonning hayotida omadli davr kelishini bildirsa, o'zbek tilida bunga ma'nodosh tarzda *"Har kimning ham o'z kuni bor"* mazmunidagi hikmatli iboralar qo'llaniladi. Bu holat turli xalqlarda umumiy hayotiy qarashlarning mavjudligini ko'rsatadi [6;72-b.].

Zookomponentlarning ingliz maqollarida qo'llanish chastotasi tahlili uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar va qushlar yetakchi o'rinni egallashini ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ingliz maqollarida eng ko'p uchraydigan hayvon nomlari quyidagilar: *dog (144), horse (88), cat (80), bird (60), fish (57), lion (47), wolf (38), sheep (35), crow (33), fox (26).*

Ingliz maqollarida ayniqsa it obrazi keng qo'llanadi. Masalan, *"Let sleeping dogs lie"* maqoli muammoga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ishga aralashmaslik kerakligini anglatadi. Shuningdek, *"A dog is a man's best friend"* iborasi sadoqat va yaqinlik ramzi sifatida ishlatiladi. Ot obrazi esa kuch va tajribani bildiradi: *"Never look a gift horse in the mouth"* maqoli berilgan narsani tanqid qilmaslik kerakligini anglatadi. Qush obrazi ingliz maqollarida imkoniyat va ehtiyotkorlik timsolidir. Masalan, *"A bird in the hand is worth two in the bush"* maqoli mavjud narsaning qadri kelajakdagi noaniq foydadan ustun ekanini bildiradi. Baliq obrazi ham muhim o'rin tutadi: *"Fish begins to stink at the head"* maqoli muammo ko'pincha rahbardan boshlanishini anglatadi. Ingliz maqollarida, ayniqsa, it obrazi keng qo'llanadi. Masalan, *"Let sleeping dogs lie"* maqoli muammoga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ishga aralashmaslik kerakligini anglatadi. Shuningdek, *"A dog is a man's best friend"* iborasi sadoqat va yaqinlik ramzi sifatida ishlatiladi. Ot obrazi esa kuch va tajribani bildiradi: *"Never look a gift horse in the mouth"* maqoli berilgan narsani tanqid qilmaslik kerakligini anglatadi [3;68-b.].

Qush obrazi ingliz maqollarida imkoniyat va ehtiyotkorlik timsolidir. Masalan, *"A bird in the hand is worth two in the bush"* maqoli mavjud narsaning qadri kelajakdagi noaniq foydadan ustun ekanini bildiradi. Baliq obrazi ham muhim o'rin tutadi: *"Fish begins to stink at the head"* maqoli muammo ko'pincha rahbardan boshlanishini anglatadi. Biroq ayrim hayvon nomlari ingliz maqollarida juda kam uchraydi. Masalan, turkey, pheasant, rabbit, cuckoo yoki hedgehog kabi hayvonlar faqat bir martadan qo'llangan. Bu esa ularning ingliz xalqining madaniy tafakkurida kuchli ramziy ahamiyatga ega emasligini ko'rsatadi. O'zbek paremiologik fondida esa hayvon nomlarining qo'llanishi xalqning tarixiy turmush tarzi bilan bevosita bog'liqdir. Eng ko'p uchraydigan zookomponentlar quyidagilar: ot (323), it (222), eshak (153), tuya (103), qo'y (97), bo'ri (73), mol (47), sigir (46), ilon (42).

O‘zbek maqollarida ot obrazi alohida o‘rin egallaydi. Masalan, *“Ot – yigitning qanoti”* maqoli otning inson hayotidagi ahamiyatini ifodalaydi. Bu xalqning tarixan chorvachilik bilan shug‘ullanganini ko‘rsatadi. It obrazi esa turlicha ma’noda ishlatiladi: *“It hurar, karvon o‘tar”* maqoli tanqid va g‘iybatlarga e’tibor bermaslik kerakligini bildiradi [4;207-b.].

Eshak obrazi, ko‘pincha, nodonlik yoki sabr timsoli sifatida ishlatiladi: *“Eshakka atlas yopsa ham eshakligicha qoladi”,* Tuya esa chidamlilik va og‘ir mehnat ramzi hisoblanadi: *“Tuyaning dumi yerga tegmas”.*

Yovvoyi hayvonlardan bo‘ri va tulki obrazlari keng tarqalgan. Masalan, *“Bo‘rini qancha boqma, o‘rmon sari qaraydi”* maqoli inson tabiati o‘zgarmasligini anglatadi. Tulki esa ayyorlik ramzi: *“Tulkining hiylasi ko‘p.”* Ba’zi hayvon nomlari esa juda kam qo‘llanadi: itbaliq, kaltakesak, chuvalchang kabi birliklar maqollarda deyarli uchramaydi. Bu ularning xalq hayotida ramziy ahamiyati past bo‘lganini ko‘rsatadi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek maqollarida hayvon obrazlari orqali inson xulqi tasvirlansa-da, ularning tanlanishi milliy madaniyat bilan belgilanadi. Ingliz tilida umumiy obrazlar (bird, animal) ko‘proq ishlatilsa, o‘zbek tilida aniq hayvon nomlari ustunlik qiladi. Bu esa o‘zbek xalqining tabiat va xo‘jalik faoliyati bilan yaqin aloqasini aks ettiradi.

Xulosa va takliflar. (Conclusion/Recommendations). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zookomponentli maqollar ingliz va o‘zbek xalqlarining lingvomadaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim paremiologik birliklardir. Hayvon obrazlari orqali insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy xulq-atvor va hayotiy tajribalar umumlashtiriladi, shuningdek, ularning ma’nosi va metaforik boyligi xalqlarning tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ingliz maqollarida sher, qush yoki tulki kabi hayvonlar ko‘pincha jasorat, erkinlik, aql-zakovat kabi fazilatlar bilan bog‘lanadi, o‘zbek maqollarida esa qoplon, quyon yoki burgut kabi hayvonlar ko‘proq xalqning kundalik hayoti, mehnatga munosabat, ijtimoiy tajriba va axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog‘lanadi.

Shu bois zookomponentli maqollar orqali inson tafakkuri va obrazli fikrlashning milliy xususiyatlari aniqlanadi. Ular lingvokulturologik jihatdan til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beruvchi muhim manba sifatida xizmat qiladi. Hayvon obrazlarining frazeologik ishlatilishi, metaforik boyligi va semantik qatlamlari tahlil qilinib, xalqlarning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va mentaliteti o‘rganiladi.

Shuningdek, zookomponentli maqollar qiyosiy tahlil orqali ingliz va o‘zbek xalqlari o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Bu esa ikki til va madaniyat o‘rtasidagi universallik va milliylik jihatlarini ko‘rsatadi, shuningdek, til orqali ifodalangan obrazli tafakkur va madaniy qadriyatlarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1984, 6-bet.

(2). Tosheva D.A. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari. Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Toshkent, 2017, 151-bet.

(3). Абдуллаева С. Английские и узбекские фразеологические единицы с компонентом-зоонимом. “Хорижий филология”, 2019, № 4, с. 68–72.

(4). Васянина К. Пословицы о диких животных в славянских языках. Slavica Iuvenum XXI. Sborník příspěvků z mezinárodní vědecké konference Slavica Iuvenum, 2020, Ostrava, 2020, с. 201–207.

(5). Кацитадзе Э.А. Метафоризация зоонимов в немецком языке. Дис. … канд. филол. наук, Тбилиси, 1985.

(6). Киприянова А.И. Функциональные особенности зооморфизмов (на материале фразеологии и паремиологии русского, английского, французского и новогреческого языков). Краснодар, 1999, 23 с.

(7). Леви-Стросс К. Структурная антропология. Москва, 1983.

(8). Миронюк Л.Ф. Семантическая типология славянских зооморфических глаголов. Днепропетровск, 1987, 80 с.

(9). Морковкин В.В., Денисов П.Н. Словарь сочетаемости слов русского языка. Москва, “Русский язык”, 1983, 688 с.

(10). Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. Москва, “Наука”, 1978, 165 с.

Mirzaabdullayeva Mahliyoxon Xosiljon qizi (Andijon davlat Texnika instituti “Tillar va gumanitar fanlar” kafedrasi, assistant; E-mail: mirzaabdullayeva1991@mail.ru)

FE’L LEKSIKASIDA KONNOTATIV MA’NO VA UNING STRUKTURAVIY IFODASI: O‘ZBEK, RUS VA INGLIZ TILLARI QIYOSI

Annotatsiya. *Maqolada fe’l leksikasida konnotatsiya (baholovchi, emotsional-ekspressiv va uslubiy qatlamlar) o‘zbek, rus va ingliz tillari materialida qiyosiy tahlil qilinadi. Sodda, yasama va qo‘shma fe’llar misolida konnotativ farqlar “neytral – rasmiy/eufemistik – so‘zlashuv/sleng” shkalasida tasniflanadi. Nati-*